

## TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH JARAYONI

**Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi**

*Qo'qon DPI o'qituvchisi*

*E-mail: [dilyoraisaboyeva1@gmail.com](mailto:dilyoraisaboyeva1@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** baholash mezon, pedagogika, bilim, malaka, ko'nikma, xalqaro baholash, dars, qobiliyat, natija, maqsad.*

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish masalalarida yangicha yondashish davr talabi bo'lib kelmoqda. Zero Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "Ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakl va uslublari, o'quv shu jumladan, tabaqalashgan dasturlar amaliyoti joriy etiladi"<sup>1</sup>, deb ta'kidlanadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yosh avlodda yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faollik, erkin fikr yuritish kabi qobiliyatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda avvalo, tahsil oluvchilarning faolligini oshirish talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlarini o'stirishda ta'limning interfaol usullaridan keng hamda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o'quvchilarda mehnat ta'limiga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda tizimlilik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, o'qitish ishlarining natijalarini nazorat qilish hamda baholashga yangicha usullarni joriy etish kabilar yetarlicha o'z aksini topmay qolmoqda. Shuning uchun umumta'lim maktablarida o'quv uslubiy ishlarni takomillashtirishda ta'lim va tarbiyaning faol usullaridan foydalanish, o'qitishning hamda sinov-nazorat ishlarini o'tkazishni maqbul shakllaridan oqilona foydanish yo'llarini izlab topish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, o'qitish usullari o'qituvchining o'quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo'lidagi faoliyatidan tarkib topgan bo'lib, kimga nimani qanday o'rgatish zarurligi haqidagi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarni bilish faoliyatlarini faollashtirish va ularning mustaqil, ijodiy fikrlashlari uchun qo'llaniladigan shakl va usullarini mos ravishda tanlash kelgusida kadrlar tayyorlashda o'z samarasini beradi. O'rta maxsus, kasb-hunar muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayon unumli mehnatni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, malakali, unumli mehnat o'quvchilarning ta'lim-tarbiya olish jarayonida shakllangan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslangandir. O'quv tarbiyaviy jarayon – boshqariladigan va

rostlanadigan jarayon bo'lib, o'qituvchi, ustoz va o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarni son va sifat jihatdan haqqoniy baholash o'quv-tarbiyaviy jarayonda olingan natijalarga qarab o'zgartirishlar kiritib borish bilan birga o'zining faoliyatiga ham tavsif beradi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash-ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida

o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asos bo'ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir. Baholashdan maqsad-kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash qator masalalarni xal etishni o'z oldiga maqsad qiladi. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: Birinchi: O'zlashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash; davlat ta'lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash. Ikkinchi: O'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi xato vakamchiliklarini aniqlash; ta'lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish. Uchinchi: Ta'lim berish: So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida o'quvchining xato hamda kamchiliklarini tuzatish. So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo'lishini ko'zda tutish.

**Xulosa.** O'qituvchilar o'quvchilar uchun eng foydali va ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan shakllantiruvchi baholash turlarini yaratish va ulardan foydalanishlari kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yati:

1. Yigitaliyeva, S., & Yo'ldoshboyeva, O. (2023). OLIY TALIMDA ONA TILI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 41-44.
2. Yigitaliyeva, S. (2022). O'zbek tilida yaxshilik konsepti va uning xalq maqollarida ifodalanish xususiyatlari. *Qo'qon DPI. Ilmiy habarlar*.
3. Yuldashev Sanjarbek Arslon o'g'li. (2023). The Solution of Economic Tasks with the Help of Probability Theory. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 26, 26-29. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjet/article/view/4654>
4. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(10), 15-19.
5. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
6. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. *Conferencea*, 16-21.
7. Umarova, N. R., & Isog, S. Y. ali qizi. (2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE. Учредители Теоретическая и прикладная наука* (9), 701-704.
8. Isaboyeva, D. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA AND IDEOLOGY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. *Science and innovation in the education system*, 2(12), 133-137.